2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 638.1.10

ASALARI OILALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

KAXRAMANOV BOYMAXMAT ABDIAZIZOVICH
Toshkent davlat agrar universiteti
Umumiy zootexniya va zootexnologiyalar kafedrasi dotsenti, q.x.f.n.
E-mail: b.kaxramanov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada asalari oilalarining asal mahsuldorligi, va ularning iqtisodiy samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi va qiyosiy tajribalar asosida tahlil qilindi.
Kalit so‘zlar: asalari, shakar sharbati, asal, ishlab chiqarish, daromad, guruhlar, oqsilli ozuqa, tahlil, harajatlar, sof foyda rentabillik, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В статье на основе сравнительных экспериментов были изучены и проанализированы такие показатели, как продуктивность пчелиных семей, производство меда, а также их экономическая эффективность.
Ключевые слова: пчела, сахарный сироп, мед, производство, белковая корма, пчеленая семия, показатели, затраты, доход, рентабельность, чистая прибыль, экономическая эффективность.

Abstract. In the article, indicators such as the productivity of bee colonies, honey production, and their economic efficiency were studied and analyzed based on comparative experiments.
Keywords: bee, sugar syrup, honey, production, protein feed, bee colony, indicators, costs, income, profitability, net profit, economic efficiency.

KIRISH

Yuqori sifatli asal va asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish uchun tarmoqning iqtisodiy samaradorligi asalarilarning nasliga, zotiga, ularni parvarishlash va saqlash texnologiyasiga, tabiiy-iqlim sharoitlariga, yil mavsumiga, tabiiy ozuqa manbalariga, asal yig‘ish mavsumi bo‘lmagan davrda oziqlantirishga, oilaning yoshi va kuchiga, veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilinishiga hamda boshqa omillarga bog‘liq [2, 3, 4].

Asalari oilalarini ko‘paytirish va saqlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun O‘zbekiston sharoitida avgust oyining ikkinchi yarmi, sentyabr va oktyabr oylarida ularni qishlashi uchun to‘g‘ri tayyorlash kerak, chunki asalarichilikda asosiy yo‘qotish qish mavsumida sodir bo‘ladi va oilaning umumiy soniga nisbatan o‘rtacha 12-14 % ni tashkil qiladi [5, 6].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishni yomon o‘tkazgan oilalar asalarichilikka katta zarar yetkazadi, asalarilar kasalliklari esa o‘z navbatida sohaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi Caron D.M va Connor L.J. (2013), Krivsov N. I., Lebedev V. I. (2001), Brandorf A.Z. (2012), Korolev V.P. (2012), Kurchavenkov, A.B. (2012), Nujdin A.S. (2005), Skvorsov, A. I. (2011), To‘raev O.S. (2010), Eshdavlatov O.Z. (2021), Nurmurodova N. F. (2025).

Qishlash davrida asalarilarning omon qolish darajasi pastligining sabablaridan biri, qish mavsumida asalarilarning ichagini tozalash uchun uyadan uchib keta olmasligi, ularning yo‘g‘on ichaklarida najas to‘planib, ichaklardagi

najas yukini oshiradi, bu esa diareya va hatto ularning o‘limiga olib keladi. Asalarichilikda asosiy jihat asalarilar zich to‘da bo‘lib, ularning faoliyati susaygan qish davrida oilalarini saqlab qolish hisoblanadi Mannapov A. G., Larionova O. S., Smolnikova E. A. (2011), Xudayberdiev, A. A. (2020), Kononenko E.A., Moreva L.Ya (2021), Ishmuratova N.M., Tambovsev K.A. (2021).

Asalarichilikda asosan ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish orqali ko‘plab sifatli mahsulot yetishtirish, daromad va sof foyda salmog‘ini oshirish imkonini yaratish talab etiladi. O‘tkazilayotgan ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, asalari oilasi mahsuldorligini oshirish uchun erta bahorda ona asalari yetishtirish, asalari oilalarini shakllantirish va asalari paketlari ishlab chiqarish, ularni jadal usullarda boqish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish asosiy omil hisoblanadi [13,14,15].

Shu maqsadda, asalari oilalarini tezkor texnologiya asosida boqish, ularni mahsuldorligini oshirishga ta’sir etadigan texnologiyani ilmiy asoslarini o‘rganish to‘g‘risida ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish muhimligidan dalolat beradi.

TADQIQOTNING MATERIALI VA USLUBI.

Tadqiqotlar 2023-2025 yillarda Toshkent viloyati Qibray tumani TDAU o‘quv-tajriba xo‘jaligida, 1-Tajriba guruhi Toshkent viloyati Bustonliq tumanida, 2-Tajriba guruhi Toshkent viloyati Parkent tumani asalarizorlarida olib borildi[4].

Olingan ma’lumotlarga Styudent mezonlari yordamida, Ye.K. Merkureva (1970, 1991) uslubi bo‘yicha, (R) qiymat darajasiga ko‘ra statistik ishlov berildi, hisob-kitob ishlari MS OFFICE (Microsoft Excel) dasturlari bo‘yicha kompyuterda korrelyatsiya qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘tkazilgan tadqiqot ishlarimiz natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida, ularning iqtisodiy samaradorligini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Biz shu maqsadda olib borgan tadqiqot ishlarimizning iqtisodiy samaradorligini o‘rgandik.

Shuning uchun ham asalari oilalarini ko‘chirib turish jarayonlariga alohida e’tibor berildi, ularning asal to‘plash imkoniyatlaridan samarali foydalanildi. Tajribadagi asalari oilalarining o‘sish va rivojlanishidan fermer xo‘jaligining o‘zidagi barcha sharoitlar hisobga olindi. Bunda bitta asalari oilalarini tashkil etishda va uni ko‘chirib turishdagi sarf - harajatlar hisoblab borildi.

Tajriba va nazorat guruhlarining iqtisodiy samaradorligini 2023-2025 yillar narxlarida mavsum davomida ishlab chiqarish harajatlari asosida baholadik. Ma’lumotlar 1, 2 va 3-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023 yilda birinchi tajriba guruhidan 3060000 so‘m, ikkinchi tajriba guruhidan 1520000 so‘m va nazorat guruhidan 680000 so‘m sof foyda olindi. Rentabillik darajasi birinchi tajriba guruhida 30,7 %, ikkinchi tajriba guruhida 15,2 % va nazorat guruhida 7,3 % ga

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

teng bo‘ldi. Birinchi tajriba guruhi ikkinchi tajriba guruhiga nisbatan 15,5%, ga nazorat guruhiga nisbatan 23,4 % ga yuqori bo‘ldi.

1-jadval

O‘tkazilgan tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko‘rsatkichlar	2023 yil		
		Tajribadagi asalari oilalarining guruhlari n-10.		
		1-tajriba guruhi	2-tajriba guruhi	nazorat guruhi
1	Asalari uyasi sotib olish, so‘m	4000000	4000000	4000000
2	Asalarilarni parvarish qilish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar va jihozlar sotib olish, so‘m	600000	600000	600000
3	Asalarilarning zararkunandalri va kasalliklariga qarshi dori vositalarini sotib olish, so‘m	400000	400000	400000
4	120 kunlik ozuqa sarfi, so‘m	4460000	4460000	4260000
5	Asalari oilalarini ko‘chirish harajatlari, so‘m	500000	500000	-
6	Jami ishlab chiqarish harajatlari, so‘m	9960000	9960000	9260000
7	Asal ishlab chiqarish, kg	186	164	142
8	1 kg asalning sotish bahosi, so‘m	70000	70000	70000
9	Asal sotishdan tushgan tushum, so‘m	13020000	11480000	9940000
10	Sof foyda, so‘m	3060000	1520000	680000
11	Rentabillik darajasi , %	30,7	15,2	7,3

2023 yilda asalari uyasi va asalarilarni parvarish qilish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar va jihozlar sotib olindi. Shunga qaramasdan barcha guruhlardagi asalari oilalaridan yuqori daromad olindi.

2-jadval

O‘tkazilgan tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil		
		Tajribadagi asalari oilalarining guruhlari n-10.		
		1-tajriba guruhi	2-tajriba guruhi	nazorat guruhi
1	Rom sotib olish, so‘m	1500000	1500000	1500000
2	Mumparda sotib olish, so‘m	1200000	1200000	1200000
3	Asalarilarning zararkunandalri va kasalliklariga qarshi dori vositalarini sotib olish, so‘m	500000	500000	500000
4	120 kunlik ozuqa sarfi, so‘m	5825000	5825000	5625000
5	Asalari oilalarini ko‘chirish harajatlari, so‘m	500000	500000	-
6	Jami ishlab chiqarish harajatlari, so‘m	9525000	9525000	8825000
5	Asal ishlab chiqarish, kg	184	170	151
6	1 kg asalning sotish bahosi, so‘m	75000	75000	75000
7	Asal sotishdan tushgan tushum, so‘m	13800000	12750000	11325000
8	Sof foyda, so‘m	4275000	3225000	2500000
9	Rentabillik darajasi, %	44,9	33,8	28,3

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilga mo'ljallangan iqtisodiy samaradorlikni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi tajriba guruhi ikkinchi tajriba guruhini ortda qoldirdi. Birinchi tajriba guruhidan 4275000 so'm, ikkinchi tajriba guruhidan 3225000 so'm va nazorat guruhidan 2500000 so'm sof foyda olindi. Rentabillik darajasi birinchi tajriba guruhida 44,9 %, ikkinchi tajriba guruhida 33,8 % va nazorat guruhida 28,3 % ga teng bo'ldi. Birinchi tajriba guruhi ikkinchi tajriba guruhiga nisbatan 11,1 % ga nazorat guruhiga nisbatan 16,6 % ga ustunlik qildi.

3-jadval

O'tkazilgan tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	2025 yil		
		Tajribadagi asalari oilalarining guruhlari n-10.		
		1-tajriba guruhi	2-tajriba guruhi	nazorat guruhi
1	Rom sotib olish, so'm	1500000	1500000	1500000
2	Mumparda sotib olish, so'm	1200000	1200000	1200000
3	Asalarilarning zararkunandalri va kasalliklariga qarshi dori vositalarini sotib olish, so'm	500000	500000	500000
4	120 kunlik ozuqa sarfi, so'm	5825000	5825000	5625000
5	Asalari oilalarini ko'chirish harajatlari, so'm	600000	600000	-
6	Jami ishlab chiqarish harajatlari, so'm	9625000	9625000	8825000
5	Asal ishlab chiqarish, kg	190	182	160
6	1 kg asalning sotish bahosi, so'm	80000	80000	80000
7	Asal sotishdan tushgan tushum, so'm	15200000	14560000	12800000
8	Sof foyda, so'm	5575000	4935000	3975000
9	Rentabillik darajasi, %	57,9	51,3	45

3-jadvalda esa 2025 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan uchinchi yilda birinchi tajriba guruhidan 5575000 so'm, ikkinchi tajriba guruhidan 4935000 so'm va nazorat guruhidan 3975000 so'm sof foyda olindi. Rentabillik darajasi birinchi tajriba guruhida 57,9 %, ikkinchi tajriba guruhida 51,3 % va nazorat guruhida 45 % ga teng bo'ldi. Birinchi tajriba guruhi ikkinchi tajriba guruhiga nisbatan 6,6 % ga, nazorat guruhiga nisbatan 12,9 foizga yuqori bo'ldi.

Bizning ilmiy-tadqiqot natijalarimiz Krivsov N. I., Lebedev V. I. (2001), Brandorf A.Z. (2012), Mannapov A. G., Larionova O. S., Smolnikova E. A. (2011), Xudayberdiev, A. A. (2020), Eshdavlatov O.Z. (2021), Nurmurodova N. F. (2025) ilmiy-tadqiqotlarida olingan natijalariga mos keladi. Mualliflar turli zotga mansub asalari oilasidan olingan asal maxsuldorligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganganlar.

XULOSA

Ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra birinchi tajriba guruhi Kraina zotli asalarilarning har uchala yilda mahsuldorligi yuqori bo'ldi. Olingan ma'lumotlar bahor va kuz faslida asalari oilalarini oqsilli ozuqa bilan oziqlatirish hamda

asalarichilik xo‘jaliklarida Kraina va Karpat zotli asalarilardan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Caron, D.M. and L.J. Connor 2013. Honey Bee Biology And Beekeeping. Wicwas Press, Kalamazoo, MI, 368 pp.

2. Брандорф А. З. Влияние подкормки пчелиных семей (Apis mellifera L.) сахарным сиропом на качественные параметры зимовки / А. З. Брандорф, М. М. Ивойлова // Аграрная наука Евро-Северо-Востока. - 2012. - № 1(26). - С. 31-34.

3. Ишмуратова Н. М. Осеннее наращивание и зимовка пчел с феромонным препаратом «Аписил» / Н. М. Ишмуратова, К. А. Тамбовцев // Общественные насекомые. Современные проблемы пчеловодства: материалы Всероссийской научнопрактической конференции, посвящённой 20-летию АПИ лаборатории биологического факультета Кубанского государственного университета, Краснодар, 29-30 мая 2021 года / Кубанский государственный университет. - Краснодар, 2021. - С. 48-50.

4. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh, Kuldasheva F.H, Doniyrov S.T, Rakhimjanova N.Z. “Breeding indicators of Carniolan (Apis mellifera carnica) and Carpathy (Apis mellifera carpatica) honey bees” E3S Web of Conferences 244, 02008 (2021) TPACEE-2021. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403018 - P. 1-8.

5. Кривцов Н.И. Перспективы развития отечественного пчеловодства / Н.И.Кривцов, В.И. Лебедев // Ж. Зоотехния. - 2001. Вып. №1. - С.25-28.

6. Королев В.П, Пчеловодство. Пасека, мед, рецепты здоровья и красоты, инвентарь, методы и приемы работы с пчелами, профилактика заболеваний и лечение пчел / В.П. Королев. - М: Эксмо, 2012. - 414 с.

7. Кононенко Е. А. Особенности зимовки пчёл разных пород на юге России / Е. А. Кононенко Л. Я. Морева // Общественные насекомые. Современные проблемы пчеловодства: материалы Всероссийской научно практической конференции, посвящённой 20-летию АПИ-лаборатории биологического факультета Кубанского государственного университета, Краснодар, 29 -30 мая 2021 года / Кубанский государственный университет. - Краснодар, 2021. - С. 66-68.

8. Курчавенков А.В. Зимовка без потерь / А.В. Курчавенков // Пчеловодство. - 2012. - №7. - С.40-42.

9. Маннапов А. Г. Рост, развитие и качество зимовки пчел различных пород: монография / А. Г. Маннапов, О. С. Ларионова, Е. А. Смольникова; М-во сельского хоз-ва Российской Федератци, Федеральное гос. образовательное учреждение высш. проф. образования “Саратовский гос. аграрный ун-т им. Н. И. Вавилова”. - Саратов: ФГОУ ВПО “Саратовский ГАУ”, 2011. - 111 с. - ISBN 978-5-7011-0724-1.

10. Нуждин А. С. Основы пчеловодства / А. С. Нуждин, В. П. Виноградов. - М.: «Колос», 2005. - 286 с.

11. Nurmurodova N. F. Respublikamizning turli hududlarida asalari oilalaridan olingan asallarning xususiyatlarini o‘rganish.: Avtoreferat. Dis… qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori. Toshkent. 2025. 52 b.

12. Скворцов А. И. Использование белковой подкормки в ранневесенний период / А. И. Скворцов, И. Н. Мадебейкин // Пчеловодство. - 2011. - № 4. - С. 12.

13. To‘raev O.S., Nurova O.A. Asal va uning xususiyatlari. J. Zooveterinariya. 2010. - № 10. –b 45-46.

14. Худайбердиев А. А. Осенняя подготовка пчелиных семей к зимовке для вывода сверхранних пчелиных маток в условиях Республики Узбекистан / А. А. Худайбердиев, А. Г. Маннапов // Главный зоотехник. - 2020. - № 9. - С. 60-71.

15. Eshdavlatov O.Z. O‘збекистон шароитида маҳаллий популяциядаги асалариларнинг qishlov davrida chidamliligini oshirish.: Avtoreferat. Dis… qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori. Toshkent. 2021. 43 b.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy